THE CURRENT STATE AND ANALYSIS OF MEDIA EDUCATION IMPLEMENTATION AMONG YOUTH IN UZBEKISTAN

Jalolova Dilnoza Shuhrat qizi

E-mail: dilnozajalolova008@gmail.com

Abstract

This paper analyzes the current state of media education implementation among young people in Uzbekistan, its role in the educational process, and its effectiveness. It also examines the level of media literacy among youth, their culture of using digital technologies and social media, and the development of critical information evaluation skills. The study reviews the measures being implemented to promote media education in Uzbekistan, identifies existing challenges, and outlines future directions for its development. The findings demonstrate that media education is one of the key factors in enhancing young people's intellectual potential, civic responsibility, and information security.

Keywords

media education, youth of Uzbekistan, media literacy, digital technologies, information culture, critical thinking, social media, information security, digital competencies, education system.

O‘ZBEKISTON YOSHLARI ORASIDA MEDIATA’LIMNI QO‘LLASH HOLATI VA TAHLILI

Jalolova Dilnoza Shuhrat qizi

dilnozajalolova008@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston yoshlari orasida mediata’limni qo‘llashning bugungi holati, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarning media savodxonlik darajasi, raqamli texnologiyalar

va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati, axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarining shakllanishi masalalari yoritiladi. Tadqiqotda O‘zbekistonda mediata’limni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, mavjud muammolar va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Natijalar mediata’limning yoshlarning intellektual salohiyati, fuqarolik mas’uliyati hamda axborot xavfsizligini ta’minlashdagi muhim omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: mediata’lim, O‘zbekiston yoshlari, media savodxonlik, raqamli texnologiyalar, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xavfsizligi, raqamli kompetensiyalar, ta’lim tizimi.

XXI asrda raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biriga aylanib, nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga, balki insonning dunyoqarashi, tafakkuri va xulq-atvoriga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlari barcha sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga asoslangan yangi taraqqiyot modelini shakllantirmoqda. Davlatlarning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanish darajasi innovatsion texnologiyalarni yaratish hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanmoqda. Natijada “raqamli bilim”, “raqamli tafakkur” va media madaniyat tamoyillariga tayanuvchi global axborot makoni vujudga kelmoqda.

Shu bilan birga, raqamli muhitning jadal rivojlanishi jamiyat va shaxs hayotiga murakkab ta’sirlarni ham olib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlar turli axborot oqimlari, ijtimoiy tarmoqlar va media platformalarning kuchli ta’siri ostida qolmoqda. Axborot texnologiyalari taraqqiyotga xizmat qilishi bilan bir qatorda, noto‘g‘ri va manipulyativ ma’lumotlarning tarqalishi, axborotga qaramlik hamda mustaqil fikrlashning susayishi kabi xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Bu holat ayrim hollarda jamiyatning raqamli

texnologiyalar va ularni boshqaruvchi axborot manbalariga haddan tashqari bog‘lanib qolishiga sabab bo‘lmoqda[1].

Shu nuqtai nazardan, media savodxonlik zamonaviy jamiyatning muhim tarkibiy qismi, fuqarolarning axborotni tanqidiy tahlil qilish va undan oqilona foydalanish kompetensiyalarini shakllantiruvchi institut sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, yoshlarning media savodxonligini oshirish, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi[2].

Mediata’lim axborot-kommunikatsiya vositalari va turli media manbalari orqali bilim, ko‘nikma hamda dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz ta’lim jarayoni bo‘lib, zamonaviy axborot jamiyatida yoshlar ta’limining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. U faqat axborotni qabul qilish bilan cheklanmay, balki uni saralash, tahlil qilish, yaratish va media makonida mas’uliyatli ishtirok etish kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Shu jihatdan mediata’lim nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiruvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Media vositalari yordamida yoshlar ilmiy ma’lumotlar bilan bir qatorda ijtimoiy, madaniy, axloqiy va huquqiy masalalar yuzasidan ham kengroq tasavvurga ega bo‘ladilar[3].

Hozirgi davrda yoshlar ta’lim jarayonida an’anaviy matnli manbalar bilan bir qatorda audiovizual materiallar, raqamli platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari hamda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda. Internet tarmoqlari va mobil ilovalar orqali

[1] Сирожов, О., & Юлдашев, Р. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТИ НАТИЖАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 77-79.

[2] Yoqubov, S. (2020). Raqamli media va yoshlar ongini rivojlantirish. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti. – Internet va raqamli platformalarda yoshlarning media savodxonligini oshirish usullari.

[3] Сирожов, О. (2013). Глобализация и региональная интеграция: сравнительный анализ. Молодежный сборник научных статей «Научные стремления», (6), 42-47.

taqdim etilayotgan media kontent ta’lim sohasida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirib, tezkorlik, vizuallik va interaktivlik kabi ustunliklarni bir vaqtning o‘zida ta’minlamoqda. Jumladan, TikTok, Instagram va Telegram kabi platformalar yoshlarning tezkor axborotga ega bo‘lishi, turli masalalar yuzasidan fikr almashishi va tahliliy yondashuvlarini rivojlantirishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, audio va video shaklidagi ta’lim resurslari xorijiy tillarni o‘rganish, moliyaviy savodxonlikni oshirish hamda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Media makonining keng qamrovliligi yoshlarning kundalik hayotida uchraydigan axborotlarni mustaqil tahlil qilish va baholash tajribasini boyitmoqda. Bu jarayonda mediata’limning interaktiv pedagogik yondashuvlarga asoslanganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, multimedia darslari matn, audio, video, grafik va animatsion vositalarni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshiradi hamda o‘quv materiallarini chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, onlayn vebinarlar, forumlar va muhokama maydonlari yoshlar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlab, tajriba almashish va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Loyiha asosida tashkil etilgan ta’lim shakllari esa o‘quvchilarning mustaqil ravishda media mahsulotlarini yaratish ko‘nikmalarini shakllantirib, ularning ijodiy va kasbiy salohiyatini yuksaltiradi.

Mediata’limning asosiy maqsadi yoshlarni axborotni passiv iste’mol qiluvchi emas, balki uni ongli ravishda tahlil qiluvchi va baholovchi shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda ular turli axborot manbalarining ishonchliligini aniqlash, dezinformatsiya va manipulyativ kontentni farqlash, media mahsulotlarning yaratilish konteksti hamda maqsadini anglash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shuningdek, ma’lumotlarni turli manbalar bilan taqqoslash, ularning etik va huquqiy jihatlarini baholash orqali tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantiradilar.

Shunday qilib, mediata’lim zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida yoshlarning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. U nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llash imkonini yaratib, yoshlarning ongli, mas’uliyatli va faol fuqarolar sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi[4].

Internetda yoshlar ko‘plab zararli kontentlarga duch kelmoqda: bu — onlayn firibgarliklar, kiber bulling, jinsiy xatarlarga olib boruvchi kontentlar, manipulyativ reklama va boshqa zararli materiallar. Masalan, Jizzaxda bir o‘qituvchining so‘zlariga ko‘ra, talabalar onlayn firibgarlik, yolg‘on xabarlar va stalkerlik bilan bog‘liq xavfli holatlar bilan duch kelgan. Bu turdagi holatlar nafaqat yoshlarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki ularning media resurslardan xavfsiz foydalanish bo‘yicha bilimining yetishmasligini ham ko‘rsatadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida mediata’lim yuksak darajada integratsiya qilinmagan. Ko‘pgina maktab va universitetlarda media savodxonlik yoki mediata’lim bo‘yicha ixtisoslashgan o‘quv dasturlari mavjud bo‘lsa da, bu fanlar ko‘pincha fakultativ yoki majburiy bo‘lmagan kurs sifatida o‘tiladi. Dasturlar asosiy media nazariyasi va texnologiyalari bilan chegaralanib, tanqidiy fikrlash, axborotni tekshirish va xavfsiz media foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar yetarli darajada o‘rgatilmayapti. Bu esa yoshlarni raqamli jamiyatdagi murakkab axborot oqimidan samarali himoyalanishda zaif qoldiradi. O‘zbekiston yoshlarining media muhitida duch keladigan yana bir muammo — bu manipulyativ kontentning keng tarqalishi va ularning ongli tanlov qilishdagi qiyinchiliklari. Axborot maydonida xabarlarda manipulyatsiya usullari ko‘pincha sezilmay qoladi, chunki yoshlar ko‘p hollarda kontentni kontekstdan ajratib berishni bilmaydi, bu esa ularning dunyoqarashi va axborot tanqidiy fikrlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi

[4] Sirojov, O. (2020). Politics Of Uzbekistan In Solving Border Problems In Central Asia.

so‘nggi yillarda media savodxonlikni oshirish va mediata’limni jadal rivojlantirishga qaratilgan bir qator muhim tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Bu tashabbuslar nafaqat yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, balki jamiyatning butun axborot madaniyatini oshirishga xizmat qilmoqda[5].

Mazkur bobda O‘zbekiston yoshlari orasida mediata’limni qo‘llash holati, uning amaliy tizimi hamda yoshlarning falsafiy dunyoqarashiga ta’siri atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mediata’lim bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida yoshlarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, axborotni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlarning aksariyat qismi ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalardan faol foydalanayotgan bo‘lsa-da, ularning mediata’lim savodxonligi yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat yoshlarning falsafiy dunyoqarashida yuzaki qarashlar, stereotip fikrlash va axborotga tanqidiy yondashuvning sustligi bilan namoyon bo‘lmoqda[6].

Shuningdek, mediata’limning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi tizimli va uzviy xarakterga ega emasligi, o‘quv dasturlarida mediata’lim elementlarining yetarlicha aks etmaganligi aniqlangan. Shu bilan birga, pedagog kadrlarning mediata’lim sohasidagi bilim va malakalarini oshirishga ehtiyoj mavjudligi ham tadqiqot davomida yaqqol ko‘zga tashlandi.

[5] Mamatqulov, A. (2019). Yoshlarning axborot madaniyati va mediata’lim. Samarqand: Universitet nashriyoti. – O‘zbekiston yoshlarida mediata’limni o‘rgatish tajribasi va metodik tavsiyalar.

[6] Sirojov, O., & Arabov, B. (2022). Uzbekistan-Afghanistan Cooperation: Need, Opportunity and Prospects. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(5).

Umuman olganda, mediata’lim yoshlarning falsafiy dunyoqarashini shakllantirishda katta salohiyatga ega bo‘lib, undan samarali foydalanish uchun mavjud muammolarni bartaraf etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatqulov, A. (2019). Yoshlarning axborot madaniyati va mediata’lim. Samarqand: Universitet nashriyoti. – O‘zbekiston yoshlarida mediata’limni o‘rgatish tajribasi va metodik tavsiyalar.

2. Сирожов, О. (2013). Глобализация и региональная интеграция: сравнительный анализ. Молодежный сборник научных статей «Научные стремления», (6), 42-47.

3. Yoqubov, S. (2020). Raqamli media va yoshlar ongini rivojlantirish. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti. – Internet va raqamli platformalarda yoshlarning media savodxonligini oshirish usullari.

4. Sirojov, O. (2020). Politics Of Uzbekistan In Solving Border Problems In Central Asia.

5. Сирожов, О., & Юлдашев, Р. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТИ НАТИЖАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 77-79.

6. Sirojov, O., & Arabov, B. (2022). Uzbekistan-Afghanistan Cooperation: Need, Opportunity and Prospects. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(5).